

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MARKAZIY VA MAXALLIY
DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI**

Davlatov Jamoliddin Qurbonboy og'li
*Uz Mu xarbiy tayyorgarlik o'quv markazi
umumqushin tayyorgarlik sikli o'qtuvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, temuriylar davrida markaziy va maxalliy davlat boshqaruv tizimi hamda , o`z davrida buyuk saltanat tuza olgan va hozirgi kunda rivojlanib borayotgan Mustaqil O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo`lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o`rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan va “Temur tuzuklari” kitobidan ham unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko`rish mumkin.*

Kalit so'zlar : *Amir Temur, buyuk davlat arbobi , diplomat, Temuriylar davlati, Tuzuklar, kengash, dargoh va devonlar, devonbegi, vazirlar, ulus, katta kengash , kichik kengash*

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, uning boshqaruv tizimi ma'naviyati , davlatning buyukligi, kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligiga erishgach, uning bir necha ming yillik ijtimoiy-siyosiy tarixini, shu jumladan davlat boshqaruvini ham har taraflama o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur saltanati, uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi , buyuk davlat bo'lganimiz hamda hududlarning o'ri masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko'plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar. Davlatimizning Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa Prezidentimizning «1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida»gi farmonlari qabul qilindi. 1996 yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil qilish xususida, «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida farmonlar chiqdi. YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi.

Amir Temur davlat boshqaruv sohasida ko'plar ishlar qiladi. Bu davrda boshqaruv dargoh va devonlar (vazirliklarga) ga bo'lingan . Dargoh – eng oliy davlat idorasi bo'lib , uning boshlig'i Amir Temurning o'zi bo'lgan .

Dargohdagi muhim lavozimlardan biri – arzbegi bo'lgan . uning xizmatiga shikoyat bilan kelganlar , arzhilar bilan ishlash , ularning arz dodlarini hukmdorga yetkazish bo'lgan . Dargohda yana bir lavozim – tavoichi bo'lgan . Tavoichi oliy farmonga muvofiq

joylarga borib ,harbiy yurush uchun lashkar to'lash bilan shug'ullangan .Tavochilar bosh tavochi ,piyoda askar tavochisi kabilarga taqsimlangan.Harbiy yurish paytida tavochilar qo'shinlarning joylashuvi ,buyruqlar ijrosi ,tinchlik vaqtidagi ishlarga taqsimlanishgan .Shuningdek,dargohda bosh hojib,xazinador ,xonsolar (to'y ,bazz, katta ziyofatlar tashkilotchisi),jevachi (qurol –aslaha saqlovchi),qushchi (ov marosimlariga mas'ul),bakovulboshi (saroy oshpazlari boshlig'i),kotiblar ,tabiblar ,bitikchilar ,g'azalxonlar,farroshlar ham xizmat qilishgan

Amir Temur devon (ijroiya)xizmatini mo'g'ul istibdodidan keyin tiklay oldi .Devonbegi shu devon boshqaruvchisi bo'lgan .U katta mavqeyga ega lavozim egasi hisoblangan .Devonda ,ya'ni markaziy ijroiya hokimiyatda yettia vazir xizmati mujassam bo'lgan.

Birinchi vazir –mamlakat va raiyat (aholi)vaziri .U bosh vazir hisoblanib ,mamlakatning muhim sohalari uchun bevosita ma'sul bo'lgan.

Ikkinchi vazir –harbiy ishlar vaziri bo'lib harbiylarning iqtisodiy ahvoli,maoshi,yer –suylari boshqaruvi ,qurol aslaha ta'minoti ,harbiy ko'riklar ,yarodar bo'lganlarga nafaqa tayinlash va boshqalar ijrosi bilan shug'ullangan

Uchinchi vazir – mulkchilik va soliq ishlari vaziri .U egasiz qolgan mol-mulklarni nazoratga olish ,savdogarlardan zakot va boj undirish , o'tloq yaylovlarni boshqarish ,barcha tushadigon daromadlarni saqlash va boshqa vazifalarga mas'ul etib tayinlangan .

To'rtinchi vazir – moliya vaziri bo'lib ,u butun saltanat bo'yicha kirim –chiqim ishlariga ,barcha xazina xarajatlari hisobini oluvchi ,moliyaviy ishlarni tartibga keltiruvchi hamda unga javobgar shaxs egasi bo'lgan .

Keyingi uch vazir – sarhad vazirlari hisoblanib ,ular saltanat tarkibidagi turli o'lka va mamlakatlarga oid moliyaviy muomila va daromadlarni ,soliqlarni boshqargan.Davlatda katta kengash mamlakat xayoti bilan bog'liq masalalar ,kichik kengashda esa uzoq mamlakatlarga xarbiy yurishlar bilan bog'liq masalalar xal qilingan .

Amir Temur “Tuzuklar “da vazir tayinlash ishida to'rt sifatga ega bo'lish lozimligini takidlaydi .Ular quydagilar bo'lgan :

- 1.Asllik va toza nasllik;
- 2.Aqllilik va fahm –farosatlik ;
- 3.Sipoh va raiyat ahvolidan xabardorlik ,ularga nisbatan xushmuomilalik ;
- 4.Sabr –chidamlilik va tinchliksevarlik .

Amir temur davrida tezkor axborot almashuvi yo'lga qo'yilgan .Davlatni ulus ,viloyat tumanlarga bo'lib boshqargan.U saltanatni to'rt ulusga bo'lib ,ular tepasiga o'z og'illari ,nevaralarini qo'ydi.

Amir Temur o'z davlatini barpo etishda o'tmishda mavjud bo'lgan barcha ilg'or tajribalardan foydalangan. Buni Nizomulmulkning "Siyosatnoma"asaridan davlat ishlarida qo'llanma sifatida keng foydalanishi, "Temur tuzuklari"da bu asardan fikrlar

keltirishida ko'ramiz. Amir Temur o'ziga qadar bo'lgan davlatchilikning 8 ta asosiga amal qilgan. -Davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi; -Davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog'i; -Boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuchi qoidalar shakllangan bo'lishi; -Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar davlat e'tiborida bo'lishi; -Fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish; -Har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borish; -Davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamona va klajakni teran va tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglanmog'i. Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga 9-chini, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini ta'minlashni ham qo'shgan edi. Amir Temur bo'yicha bunday tabaqalar o'n ikkita bo'lib ularda jamiyatning barcha tarkibiy qismlari o'rin olgan. Bu tabaqalar quyidagilar edi:

1. Sayyidlar, olimlar va shayxlar
2. Katta tajribaga ega ilimli kishilar
3. Duo qiluvchi taqvodorlar
4. Lashkarning sipohlari, sarxang va amirlar
5. Askar va xalq ommasi
6. Davlat boshqaruv ishlarini ipidan ignasigacha biladigan maslahatguy, don ova aqilli kishilar
7. Vazirlar, kotiblar, devon boshlig'i.
8. Tibbiyot axli, munajjim va muxandislar.
9. Muxaddislar va muarrixlar.
10. Tasvuv vakillari va oriflar.
11. Xunarmandlar va sanotkorlar.
12. Ajnabiy sayyohlar va savdogarlar.

“Yuqorida aytilganlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak: ...Amir Temur bobomiz mo'g'ullar bosqini davomida xor-u zorlikka uchragan yurtimiz va xalqimizni markazlashgan kuchli va madaniy jihatdan yuksak davlat barpo qilishiga, butun dunyo tan olgan markazlashgan davlat tuzishga, ichkaridan va tashqaridan tahdid qiladigan barcha tajavuzkor davlat qo'shinlarini o'ziga bo'y sindirgan edi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida / Klavixo Rui Gonsalesda. Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406); Tarj., U. Jo'raev. Sultoniya arxiepiskopi Ioann. Amir Temur va uning saroyi haqida hotiralar. – Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – 208 b.
2. Amir Temur Ko'ragon. Temur Tuzuklari – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019, – 160 b

3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi.- Toshkent: Sharq, -2000.-365 b
4. B.J.Eshov,A.A.Odilov ,2020”Donishmand ziyosi “ nashriyoti ,2020
5. Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. –Toshkent, 1991.-260 b
6. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san’ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017